



MAKTABGACHA TA'LIMDA MUAMMOLI VAZIYATLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Ergasheva Sarvinoz Ulug'bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

ergashevasarvinoz72@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralib kelinayotgan maktabgacha ta'limda muammoli vaziyatlardan umumli foydalanish va ularning bugungi yosh tarbiyachilar pedagogikasida uslubiy qurol sifatida foydalanishning metodikalari keltirilgan.

Bundan tashqari bu ilmiy maqolada o'rganilgan 10 ga yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi muammoli vaziyatlarning umumiy va xususiy tomonlari keltirib o'tilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqot jarayonida kashf etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilardagi eng ko'p uchraydigan muammoli vaziyatlar va ularning jadval va diagramma ko'rinishidagi holati aks etgan.

Kalit so'zlar: Bola, komil inson, tarbiya, tadqiqotchi, maktabgacha pedagogika, dastur, psixologiya, qog'ozbozlik, sog'lom oila

Abstract: This article outlines methodologies for making good use of problematic situations in education and their use as a methodological weapon in the pedagogy of young educators today, which is viewed as one of the most pressing issues in the preschool education system today.



In addition, this scientific paper outlines general and private aspects of problematic situations in about 10 preschool organizations studied. The research process reflected the most common problem situations in educators in the educational organization until the invented school and their status in the form of charts and charts.

Key words: Child, perfect person, upbringing, researcher, preschool pedagogy, program, psychology, paperwork, healthy family

KIRISH. Maktabgacha ta'lim tizimi bugungi kunda yurtimiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanib har qanday davr va kunda o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Yurtimizda ham bugungi kunda bu borada juda ham ko'p samarali targ'ibot, tashviqot ishlari hamda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biz hozirgi kunda ushbu sohadagi kamchilik va nuxsonlarni bartarf etmoqchi bo'lsak qilishimiz kerak bo'lgan ishlardan eng muhimi bu har tomonlama mukammal va yetuk komil insonlarni kashf eta olishimiz kerak shu o'rinda taniqli alloma buyuk shaxs Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman, axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Insonning tabiati esa eng avvalo oilada shakllanadi. Demak biz yana sog'lom oilani ya'ni ham moddiy ham ma'naviy sog'lom bo'lgan oilani barpo eta olishimiz kerak. Agar chuqur o'ylaydigan bo'lsak hammasining zamiri bu maktabgacha ta'lim hisoblanadi. Biz bolaning iste'dodini va iqtidorini aynan shgu bo'g'inda kashf etib uni to'g'ri yo'lga yo'naltiradigan bo'lsak biz yuqorida ta'kidlab o'tgan barcha cho'qqilarga erishgan kamchiliklarni bartaraf etgan bo'lamiz. Maktabgacha pedagogikaning vazifalari:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogik muammolarni hal qilish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olish ehtiyojini, o'qishga qiziqish, kitob o'qish, maktabga borish hissiyotini shakllantirish;
- bolalar tarbiyasida mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatuvchi ilg'or metodlarni qo'llash;



- bolalarga yuksak odob, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni mentalitetimiz asosida o'rgatish.[1.6]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ushbu mavzuni o'rganishda bizga yordamga bolalar psixologiyasi fani keladi. Bu fanning asosiy o'rganish obyekti bu bolalarda kechadigan asosiy muammolar va ulardagi bog'chada ta'lim olish jarayonida qiladigan sababsiz injiqliklari va o'zgacha bolalarcha tuyg'ulari hisoblanib ularning barchasi bilan ushbu fan shug'ullanadi.

Bolani o'rganish ikki asosiy shaklda: "ko'ndalangiga kesim" va "uzunasiga kesim" metodi deb nomlanuvchi tadqiqot shaklida amalga oshiriladi.

Tadqiqot ko'ndalangiga kesim shaklida o'tkazilganda turii yoshdagi bolalar guruhlarida muayyan psixologik jarayon, holat yoki xususiyat o'rganiladi va har xil yosh bosqichidagi bolalar ustidan olib borilgan tadqiqot natijalari o'zaro solishtiriladi. Masalan, D.B.Elkonin kichik, o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning syujetli-rolli o'yinlariga xos xususiyatlarni o'rganib, o'zaro solishtirib bolalar o'yinlari taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatni aniqlagan. Ko'ndalangiga kesim shaklidagi tadqiqotda asosiy e'tibor sinaluvchi bolalar yoshidagi farqlarga qaratishi kerak. Farq qanchalik kichik bo'lsa, psixolog tadqiqotchi bola psixikasi va shaxsidagi muhim o'zgarishlarni payqash uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi. Tadqiqot uzunasiga kesim shaklida o'tkazilganda bir yoki bir necha bolaning muayyan vaqt oraligidagi hayoti o'rganiladi. Tadqiqotchi uzluksiz ravishda bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o'tishda bola psixikasi va hulq-atvorida ro'y beruvchi o'zgarishlarni aniqlab boradi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasasida yangi dastur bo'yicha ish boshlangan boisa, muassasaga endi qabul qilingan bolalarni 4- 5 yil uzluksiz o'rganish orqali dasturning bola taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash va u haqida xulosa chiqarish mumkin boiadi. Uzunasiga kesim shaklidagi tadqiqot shuningdek, ayrim hollarda longitudinal tadqiqot ham deb ataladi. Tadqiqotning bu shakli ancha murakkab va ko'p vaqt talab etadi.[2.10]




Ushbu ilmiy maqolani yozish va mavzuni o'rganish jarayonida bolani o'rganishning tadqiqot ko'ndalangiga kesim shaklidan foydalanildi. Ushbu ishni amalga oshirish jarayonida o'rganilgan 10 ga yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni psixologiyasi va ularning ana o'sha tashkilot ichidagi o'zini tutishi boshqa bolalar bilan suhbatlari kuzatilganda shunga amin bo'lish mumkinki bolalarda va umuman muammoli vaziyatlardan biri sifatida boshqa bolalarning ta'lim tashkilotiga kelish jarayonida ota – onasi tomonidan ularga qimmatbaho kiyimlarni yoki qiymati yuqori bo'lgan narsalarni shu tashkilotga olib kelishi tufayli ana o'sha yerda tarbiyalanuvchi ba'zi bolalarni ruhiyatiga va ularni kun davomidagi kayfiyatlarini salbiy bo'lishiga va tarbiyachhisiga nisbatan sababsiz injiqliklar qilishiga olib kelmoqda. Bu ayniqsa Shahar hududida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Sabab esa Shahar hududida istiqomat qiluvchi oilalarning oilaviy sharoiti orasidagi sezilarli farq qolaversa bir-biriga nisbatan sovuq muomala yon qo'shnilari holidan habar olmaslik kabi holatlarning ko'p uchrashi bolalarning ruhiyatiga ham ta'sir etib kelmoqda.

O'rganilgan bog'chalardagi mummoli vaziyatning uchrash chastotasi va

bolalarning oilaviy ahvoli

1 – jadval

Tashkilot T/r	Mummoli vaziyat uchrash chatotasi	Moddiy yordamga muhotoj tarbiyalanuvchilar
MTT 1	5	9
MTT 2	10	5
MTT 3	7	2
MTT 4	8	3
MTT 5	6	5
MTT 6	2	4
MTT 7	9	8
MTT 8	3	3
MTT 9	8	9
MTT 10	4	1



1 – diagramma

MUHOKAMA. Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turibdiki ushbu mavzuni o'rganishdagi birgina muamoli vaziyatning jadvali va diagrammasi keltirilgan. Shuni o'zidan ham sezishimiz mumkunki ushbu muammoli vaziyatning naqadar dolzarbligini sezishimiz mumkin.

Bugungi kunda yosh tarbiyachilarida shunday vaziyatlardan mohirona shakllantirish uchun biz ulardan ta'lim berish muammoli vaziyatlar ya'ni keys study lardan unumli va ko'p foydalanishimiz kerak. Bugungi globallashuv davrida muammoli yondashuv ta'lim dasturlarida, bolalarning mustaqil faoliyatlarida o'zining ifodasini topishi lozim. Jumladan:

- bilimlarni muammoli bayon qilish;
- bolalarni izlanishga undash;
- ta'limning tadqiqiy metodi.



Muammoli ta'lim deganda beriladiga ma'lumotlarni ta'lim oluvchilar ongiga ularning darajasiga mos va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish tushuniladi. Ta'lim qachonki ushbu yo'sinda olib borilsagina bolaning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani ob'ektiv ravishda izlanishga, tafakkur qilishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi.

Muammoli ta'lim - ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub'ektiv shaklidir. U muammoli vaqtning, yangi jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida ob'ektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Muammoli vaziyat bolaning ma'lum ruhiy holati bo'lib, bu holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. "Muammoli vaziyat" metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning bir qancha echimini topish, eng to'g'ri xulosaga kela olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. [3.10]

Agar biz sohaga chuqur yondashadigan bo'lsak bunday turdagi muammolarni ko'plariga yechim topishimiz mumkin. Eng muhim jihati shunda iboratki vazifda bunday muammolarni nafaqat aniqlashg balki ularni o'rinli tarzda bartaraf eta olish ko'nikmasini bo'lajak tarbiyachilarda tashkil eta olish desak hech ham mubolalg'a bo'lmaydi.

Biz maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasini tasvirlab berdik. Ushbu texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolaga fikrlashda mustaqillikni rivojlantirishga, vaziyatlarni hal qilishning yangi usullarini topishga imkon beradi. Muammoli vaziyatlar bolalarning kognitiv, xulq atvor va shaxsiy faolligini faollashtiradi. [4.4]

NATIJALAR. Yuqoridagi tadqiqot jarayonida qayd etilgan mummolarga yechim toppish samarali yollaridan biri bu albatta MTT tashkilotlarida bolalarga ko'proq ertak kitoblar o'qib berish va ular bilan ko'proq ro'lli o'yinlarni o'tkazish orqali biz bolalarda tafakkur faoliyatini shakllantirish ro'lli o'yinlarni o'ynatish orqali esa biz ularda har



qanday ish va topshiriqni bajarish chog'ida ishga jiddiy yondashish kerakligi haqidagi tushunchalarni ularning tasavvur olamiga kiritgan bo'lamiz. Tadqiqot olib borish jarayonida shu va shu kabi muammolarga bir qator yechimlar berilib ushbu yechimlarning qay darajada samarali ekanligi yechimlarni amaliyotga joriy etish jarayonida ko'zga tashalandi va ularni hozirgi kunga moslashtirish jahon standartlariga javob bera oladigan yechimni topish kerakligi haqidagi hulosaga kelindi.

Yuqorida aytib o'tilgan yechimlardan biri sifatida muammoli vaziyatlardan foydalanishning ustuvor jihatalri va uni hozirda amaliyotga joriy etish orqali nimalarga erishishimiz mumkinligi haqida ko'rib chiqaylik. Bundan tashqari muammoli keys studylarni maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari orasida joriy etish orqali biz ularda qanday ma'naviy jihatlarni, sifatlarni shakllantirgan bo'lamiz tadqiqot jarayonidagi olib borilgan ish jarayonida yechimlardan natijalarga o'tish jarayonida shu va shu kabi savollar qo'yildi.

Muammoli ta'lim faoliyatini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni, shundaki, bunda pedagog ushbu ta'limning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. Pedagog hech qachon ta'lim oluvchiga tayyor yechimni berishi kerak emas, balki ularni fikrlashiga, aqliy rivojlanishiga, bilim olishlariga turtki bo'lishi, ularning barcha faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim. Ushbu ta'lim texnologiyasidan, muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Masalan yangi mavzu bayonida, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda. Xulosa qilib aytganda muammoli o'qitish texnologiyasining maqsadi ta'lim oluvchilar bilan ishlash jarayonida ham ta'limiy ham tarbiyaviy masalalar, muammolar, turlicha savollariga javob qidirish, muammoli vaziyatlar ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, faoliyatda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etishga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirishdan, qiziqish uyg'ota olishdan iborat. [5. 3,4]



XULOSA. Xulosa qilib aytadiga bo'lsak bugungi kunda ushbu mavzunining dolzarbligi juda ham yuqori darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Biz bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirmoqchi ekanmiz tizimning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishimiz kerak. Kadrlar bo'limasi, maktabgacha ta'lim sifati haqida gapirishga hojat ham yo'q. Biz kadrlarni qayta tayyorlash masalasini ishlab chiqdik. Maktabgacha ta'lim mutaxassisligiga ega bo'lmagan pedagoglar juda ko'p. Bugungi kunda akademik litsey va kollejlardagi pedagoglarga ish kamaydi, ular pedagogik tajribaga ega bo'lgan, lekin bazaviy maktabgacha ta'limga oid bilimlarga ega bo'lmagan kishilardir. Bundaylar uchun pedagogika universitetlari qoshida 4 oylik qayta tayyorlash kurslari ochildi. Bugunga kelib 9400 dan ziyod pedagog ularni tugallab, MTV tizimiga qamrab olindi. Bundan tashqari, biz yangi moslashuvchan modelni ishlab chiqdik, ya'ni pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan kishilar uchun 6 oylik kurslar tashkil etildi, ularning soni - 1500 nafar atrofida", - deydi maktabgacha ta'lim vaziri. Bundan tashqari, Toshkentdagi yangi Puchon Universiteti haqida unutmash kerak. 540 tinglovchi bugunga qadar sinovlardan o'tgan. Ular yangi avlod pedagoglari bo'lishadi, bu pedagoglar musiqiy ta'lim, sport ta'limi va boshqa yo'nalishlarda ham ta'lim olib, har tomonlama mutaxassis bo'lib yetishishadi.

Statistika: Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimiga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 2,5 mln bola qamrab olingan. Respublikadagi MTMlar soni esa - 6154. Ulardan 5586 tasi - davlatga qarashli, 568 tasi nodavlat ta'lim muassasasidir. Bugunga kelib 859 141 nafar bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan, bu umumiy hisobning 34 foizi demakdir. Jami 1 mln 600 dan ziyod bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan.

Biz maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muammoli vaziyatlarni hal qilish texnologiyasini tasvirlab berdik. Ushbu texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolaga fikrlashda mustaqillikni rivojlantirishga, vaziyatlarni hal qilishning yangi usullarini topishga imkon beradi. Aynan shunday va shu



turdagi texnologiyalar bolalarda mustaqillik erkin fikrlash kabi fazilatlarni shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega .

Sir emaski, yaqin kunlarga MTMLardagi pedagoglar ko‘plab hujjat turlarini to‘ldirishlariga to‘g‘ri kelgan. Vaqti kelganda, qog‘ozbozlik sabab bolalarga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Chunki rahbariyat talabini o‘z vaqtida bajarmaslik yaxshilikka olib kelmasligini yaxshi bilishgan. Ko‘plab yaxshi kadrlar aynan shu qog‘ozbozlik sabab ham sevimli kasblaridan voz kechishgan. Va nihoyat, 2018 yilning 15 iyulida MTMLarda qog‘ozbozlikni qisqartirishga oid qaror qabul qilindi. Unga ko‘ra, ilgari pedagoglar 9 ta hujjat turini yuritgan bo‘lsa, endi ularning soni 4 tagacha qisqartirildi. Umid qilamizki, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar amalda o‘z ifodasini topib, farzandlarimiz - sifatli maktabgacha ta‘lim, pedagoglar esa - munosib ish haqi va imtiyozlar bilan ta‘minlanishadi. Toki har bir bola bog‘chaga borgisi kelmay ko‘z yosh to‘kmasin, yaxshi pedagoglar esa o‘z kasbini tashlamasin!

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Husanboyeva.U.O’//Maktabgacha ta’lim pedagogikasi//6- sahifa T.: 2011
2. Nishanova.Z., Alimova.G.//Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi// T.: 2016 10 – sahifa
3. Qodirova. F, Toshpo'latova. Sh, Kayumova. M, A'zamova. M Maktabgacha pedagogika.
4. Mahmudovna.M. //Muammoli vaziyalarini hal qilishda interfaol vositalardan foydalanish//4 – sahifa // scientific progress volume 2 | issue 7 | 2021 issn: 2181-1601.
5. Muzaffarova. G. Pedagogik psixologiya darsini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning psixologikxususiyatlari//3–4-sahifa//o‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali// t.:2020